

HAVONING GLOBAL IFLOSLANISHI VA UNING INSONLAR HAYOTIGA BO'LGAN TA'SIRI

G'afforova Hadichaxon Abduhamid qizi

Student of English philology faculty of Uzbekistan State World Language University

E-mail: gafforovaxadicha5@gmail.com

Annotatsiya: *Dunyo bo'ylab eng dolzarb muammolardan biri bu- havoning keskin ifloslanishidir. Ushbu maqolada dunyo iqlimidagi jiddiy o'zgarishlar yuz berayotgani va bunday ifloslanish kabi muammolar insonlar hayotiga salbiy ta'sir o'tkazishi haqida fikr yuritilgan. Qolaversa, tobora jiddiylashib borayotgan bu muammoning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan bir qancha omillar keltirilgan va ularning oldini olish uchun muqobil usullar tavsiya etilgan.*

Kalit so'zlar: *Ifloslanish, transportlar, kosmik chang, Toshkent*

Kirish qism:

Atmosfera so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, (atm- bug', sfera-qobiq) degan ma'noni bildiradi. Atmosfera yerning asosiy qatlami bo'lib, insoniyatni koinotdan yer shariga harakatlanuvchi turli katta va kichik zarralar, zararli nurlardan asrovchi qobiqdir. Yer shari bu qobiqsiz allaqachon barbod bo'lishi tayin. Shu sababli dunyo miqyosida eng katta muammolardan biri bo'lgan havo ifloslanishi holati barchani birdek harakat qilishga jalb qilmoqda.

Havo ifloslanishini dunyo miqyosida eng dolzarb muammo bo'lib, uning kelib chiqishiga bir qancha sabablar mavjud. Birinchidan, insonlarning transport vositalaridan foydalanishga bolgan ehtiyojlarining ortishidir. Misol uchun deyarli barcha rivojlangan mamlakatlardagi har bir oilada eng past ko'rsatkich hisobida bitta o'zining shaxsiy mashinasiga ega. 2025-yil oktabr oyida dunyo aholisi taxminan 8,2 milliarddan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich hozirgi vaqtda 8,218,034,614 ga yaqinni tashkil etadi. Bu miqdorning deyarli yarmidagi insonlar avtomobillardan foydalanishadi. Bunday transport vositalaridan foydalanish orqali atmosferaga jiddiy zarar yetadi. Buning sababi shundaki, deyarli kundalik hayotimizda ko'chalarda avtomobillarning tirbandligi, ularning qator bo'lib turishini ko'rishimiz tabiiy. Bunday tirbandliklar yuz bergan holatlarda mashinalarning dvigatellari ishlashda davom etadi va havoni zararli gazlar bilan ifloslanishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, sanoat rivojlanishining asosiy jihatlaridan biri bo'lgan turli korxona va zavodlarning qurilishi ham havoning ifloslanishiga olib keladi. Bunday korxonalar mahsulot ishlab chiqarishda turli materiallardan foydalanishadi. Bunday materiallarni eritish, ajratish, qotirish kabi usullarni qo'llash davomida quvurlardan zararli gazlar chiqadi va atmosferaga jiddiy zarar yetkazadi. Misol tariqasida keltirish mumkinki, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) kabi yirik sanoat majmualari tomonidan chiqarilayotgan oltingugurt

dioksidi (SO_2) kabi og'ir metallarning atmosfera ga tarqalishi mintaqadagi havo sifatiga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Shuningdek, havo ifloslanishining asosiy sabablardan biri — odamlarning befarqligi. Yuqorida ta'kidlanmaganidek havo ifloslanishi bugungi kunda dunyo miqyosida eng dolzarb ekologik muammolardan biridir. Zavodlar sonining ko'payishi, avtotransportlarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi va chiqindilarni noto'g'ri boshqarish, albatta, havoning tarkibiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo bu jarayonning eng asosiy ildizi shundaki, ko'p hollarda odamlar ushbu muammoga nisbatan befarq bo'lib qolmoqda. Odamlar ko'pincha "Bu men bilan bog'liq emas", "Bir odamning qilganidan nima o'zgaradi?" degan fikr bilan yashashadi. Ammo aynan shu befarqlik muammoning kengayishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, oddiygina ko'chada tashlab ketilgan plastik butilka yoki qog'ozlar shamol ta'sirida uzoqqa tarqaladi, keyinchalik yillab parchalanmay, atrof-muhitga zarar yetkazadi. Yoki mashinalardan chiqayotgan tutun miqdorini kamaytirish uchun yiliga bir marta texnik ko'rikdan o'tish ham ko'plar uchun ikkinchi darajali bo'lib qolgan. Bizning har bir kichik harakatimiz, aslida, katta natijaning boshlanishi bo'lishi mumkin. Agar insonlar atrof-muhitni asrashni o'zining shaxsiy mas'uliyati deb bilsa, chiqindilarni kamaytirish, daraxt ekish, yerni toza saqlash kabi oddiy ishlardan ham katta o'zgarish boshlanadi. Ammo afsuski, ko'pchilik atrof-muhit faqat davlat yoki ekologik tashkilotlarning vazifasi deb o'ylaydi. Aslida esa tabiat — hammamiz uchun yagona uy. Havoning tozaligi bizning sog'lig'imiz, farzandlarimiz kelajagi, jamiyatning ertangi kuni bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun har bir inson avvalo o'zidan boshlashi, befarqlik pardasini yirtib, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishi zarur.

Yuqorida keltirilgan havo ifloslanishi muammosining oldini olish uchun bir qancha yechimlar ham mavjud. Masalan, transport vositalaridan oqilona foydalanish. Havo ifloslanishining asosiy manbalaridan biri — transport vositalarining haddan tashqari ko'pligidir. Shaxsiy avtomobildan ko'p foydalanish natijasida atmosferaga zararli gazlar — karbonat angidrid, metan va boshqa kimyoviy moddalar chiqariladi. Bu moddalar havoni ifloslantiribgina qolmay, insonlar nafas oladigan kislorod sifatini pasaytiradi, sog'liq bilan bog'liq muammolarga sabab bo'ladi. Shu sababdan transportdan foydalanish madaniyatini o'zgartirish juda muhim. Jamoat transporti, avtobuslar, metro va tramvay tizimlarining qulay va arzon bo'lishi odamlarni shaxsiy mashinadan kamroq foydalanishga undaydi. Velosiped yo'laklarini ko'paytirish, piyodalar uchun xavfsiz yo'llar ajratish ham ekologik holatni yaxshilaydi. Shuningdek, elektr va gibrid avtomobillarni targ'ib qilish ham havoga chiqariladigan gazlarni keskin kamaytirishga xizmat qiladi. Transportdan jamiyat sifatida oqilona foydalanish — bu sog'lom muhit sari tashlangan muhim qadamdir. Shuningdek, sanoat korxonalarida ekologik talablarni kuchaytirish ham muqobil yechim bo'la oladi. Zavod va fabrikalar iqtisodiy o'sishda muhim rol o'ynasa-da, ular tomonidan havoga chiqariladigan zararli tutunlar ekologik muhitga katta zarar yetkazadi. Agar korxonalarda maxsus filtrlash uskunalari o'rnatilmasa, atmosferaga tushgan kimyoviy moddalarning tarqalishi tezlashadi. Shu sababli sanoat korxonalariga nisbatan ekologik talablarga amal qilish qat'iy nazorat qilinishi zarur. Har bir zavodda zamonaviy filtrlar, tozalash moslamalari va chiqindilarni kamaytirish texnologiyalari o'rnatilishi lozim. Bundan tashqari,

sanoatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish — masalan, quyosh, shamol yoki bioenergiya — havoni toza saqlashda samarali natija beradi. Korxonalar o‘z faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash maqsadida daraxt ekish, yashil hududlar yaratish kabi ekologik tashabbuslarda ham faol bo‘lishlari zarur. Shu tarzda sanoat rivojlanishi va tabiat muvozanati orasida barqaror uyg‘unlik yaratiladi. Qolaversa, aholining ekologik ongini oshirish eng muhim yo‘llardan biridir. Havo ifloslanishining eng katta sabablaridan biri — odamlarning tabiatga nisbatan befarqligidir. Ko‘pchilik atrof-muhitni asrashni faqat davlat yoki ekologik tashkilotlar vazifasi deb o‘ylaydi. Aslida esa tabiat — har bir insonning shaxsiy uyidir, uni asrash ham har birimizning burchimiz. Shu sababli ekologik madaniyatni kuchaytirish juda muhim. Maktab va oliygohlarda ekologiya faniga e’tiborni oshirish, yosh avlodni tabiatni sevishtirish va uni asrashga o‘rgatish kerak. Ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabat haqida targ‘ibot ishlari ko‘paytirilishi lozim. Mahallalarda daraxt ekish aksiyalari, tozalik kunlari va chiqindilarni saralab tashlash tadbirlari o‘tkazilishi odamlarni amaliy ishtirokga chorlashi mumkin. Eng muhimi, har bir inson o‘zini tabiatning mas’ul egasi sifatida anglab yetishi kerak. Qo‘shimcha tariqasida keltirishi mumkinki, daraxt ekish va yashil maydonlarni ko‘paytirish ham ancha foydalidir. Daraxtlar tabiatning eng kuchli “tirik filtrlari” hisoblanadi. Ular havodagi karbonat angidridni yutib, o‘miga toza kislorod ajratadi. Shaharlarning keskin rivojlanishi natijasida ko‘plab hududlar betonlashib bormoqda, bu esa havo almashinuvini qiyinlashtiradi. Yashil maydonlar kamaygan sari shaharlar ichidagi havo harorati ko‘tariladi va chang ko‘payadi. Shuning uchun daraxt ekish — havo sifatini yaxshilashning eng oddiy, ammo eng samarali usulidir. Mahallalarda, maktablarda, korxona va tashkilotlarda daraxt ekish tadbirlarini muntazam o‘tkazish, yangi bog‘lar va istirohat bog‘larini barpo qilish zarur. Har bir inson yiliga kamida bittadan daraxt ekishni odat qilsa, kelajak uchun muhim ekologik zamin yaratiladi. Daraxtlar nafaqat havo sifatini yaxshilaydi, balki insonlarga ruhiy osoyishtalik, shaharlarimizga go‘zallik va hayot baxsh etadi.

Xulosa shuki, havo ifloslanishi — bu faqat ekologik muammo emas, balki inson salomatligi, jamiyat farovonligi va kelajak avlodlar taqdiri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan dolzarb masaladir. Agar havo iflos bo‘lsa, demak, nafas olayotgan kislorodimiz ham toza emas. Bu esa yurak-qon tomir kasalliklari, nafas yo‘llari yallig‘lanishi, allergik kasalliklar va boshqa ko‘plab sog‘liq muammolariga olib keladi. Shu bilan birga, ushbu global muammoning asosiy manbai inson faoliyati va, eng muhimi, ekologik befarqlik ekanligi ilmiy asoslangan xulosadir. Shuning uchun havo sifatini yaxshilashda har bir insonning ishtiroki muhim. Jamiyat sifatida biz transportdan foydalanish madaniyatini o‘zgartirishimiz, ekologik talablarni sanoat korxonalarida qat’iy nazorat qilishimiz, tabiatga bo‘lgan munosabatni ta’lim va tarbiya orqali mustahkamlashimiz lozim. Eng oddiy va samarali choralar — daraxt ekish, hududlarni toza saqlash, chiqindilarni saralab tashlash kabi amaliy qadamlar ham katta o‘zgarishlar keltirishi mumkin.

Tabiat — biz uchun vaqtinchalik joylashgan makon emas. Bu — bizning yagona uymiz, hayotimizning asosi, tirikligimizning manbai. Biz undan olamiz: havoni, suvni, oziqni, tinchlikni. Shuning uchun unga qaytarish, asrash va e’zozlash — bizning burchimizdir. Agar

bugun tabiatga mehr bilan munosabatda bo'lsak, ertaga u bizga yana-da ko'proq hayot va baraka qaytaradi. Aksincha, beparvolik va loqaydlik bilan yondashsak, nafaqat o'z hayotimizga, balki kelajak avlodning farovonligiga ham zarar yetkazamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.iloencyclopaedia.org/uz/part-vii-86401/environmental-health-hazards/item/499-air-pollution>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/10/air-pollution-tashkent/>